

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA, BADIY GRAFIKA VA MEHNAT TA‘LIMI FAKULTETI

“Kasbiy ta‘limni o‘qitish metodikasi” kafedrası

«Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti» fanidan **«O‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi rejissyor va aktyor sifatida. O‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish»** mavzusida

REFERAT

BAJARDI: Umirova Charos

Qabul qildi: Rahimov A.

Ta‘lim yo‘nalishi:

5142000-Mehnat ta‘limi

Samarqand - 2014

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi rejissyor va aktyor sifatida. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish

Reja:

1. Pedagogik harakat dramaturgiyasi va rejissurasi.
2. Pedagogik xayol – pedagogik ta'sir ko'rsatishning tarkibiy qismi sifatida.
3. Bo'lajak pedagogni aktyorlik psixotexnikasining amaliy usullariga o'rgatish.
4. Xotira, diqqat va xayolni mashq qildirish – aktyorlik psixotexnikasining 3 asosiy qismi sifatida.
5. Muomalani mashq qildirish usullari.
6. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish.
7. Ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish.

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:

Pedagogik jarayonni tahlil qilish, teatr ijodkorligi, hissiy - o'zaro fikr almashish, pedagogik xayol, muomala va materialni idrok qilish, pedagogik xayolning badiiyligi, pedagogik mantiq, pedagogik xayol yo'nalishlari, hissiy o'xshatish, pedagogik ta'sir ko'rsatish, pedagogik diqqat, ijodiy pedagogik diqqat, diqqatning barqarorligi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning ritmik xususiyati, jismoniy harakatlar usuli, harakatga sozlash, zo'riqish va bo'shashishni sezish maqsadlari, xotira, xayol va diqqatni mashq qildirish, muomalani mashq qildirish: ijodiy tafakkur, nutq, empatiya, fikr almashishni mashq qilish. Yangi pedagogik tafakkur, psixologik xizmat, milliy ma'naviyat, milliy ruh, ta'lim-tarbiyani demokratiyalash, insonparvarlashtirish, tarbiya obyekti va subyekti, pedagogik hamkorlik.

1. Pedagogik harakat dramaturgiyasi va rejissurasi

Tarbiyaviy jarayon ijodiy jarayon bo'lib, u pedagogik vaziyatni tahlil qilish, bolalar bilan bevosita hamkorlik qilishda yorqin namoyon bo'ladi.

Teatr ijodkorlarida va pedagogik ta'sir ko'rsatishda ayni pedagog bilan bolalarning bevosita o'zaro harakati bilan bog'liq bo'lgan hissiy – o'zaro fikr almashish sohasida ko'pgina umumiy tomonlar bor.

Teatr faoliyati va pedagogik faoliyatni maqsadning o'xshashligi ham yaqinlashtiradi, har ikkala holatda ham maqsad kishining kishiga ta'sir ko'rsatishi va kishiga muayyan kechinmalar vujudga keltirish sifatida belgilanishi mumkin. Teatr va pedagogik faoliyat bir xilda ekanligining uchinchi ko'rsatkichi - ta'sir ko'rsatish qurolining umumiyligidir. Har ikkala holda ham pedagog bilan aktyorning o'zpsixofizik tabiati ana shunday qurol vazifasini bajaradi. Teatrda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish faqat teatrning estetik mohiyati orqali amalga oshirilishini, pedagogik ta'sir ko'rsatishda esa mustaqil va global tarkibiy qism sifatida bunday ta'sir ko'rsatishning yo'qligini aytib o'tish kerak.

Teatr va pedagogik faoliyat mazmuni ba vosita belgilari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib bir qator umumiy jarayon xususiyatlariga egadir, bu xususiyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- teatr va pedagogik ijodkorlik jarayoni mazkur jarayonning faol qatnashchilari bo'lgan kishilar guruhining bevosita ishtirokida ommaviy so'zga chiqish vaziyatida amalga oshiriladi;

- teatr va pedagogik faoliyat o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra o'zi ta'sir ko'rsatadigan obyektga ayni vaqtda ijod subyektiga, sherik ijodkorga aylantiradi, uning faol ishtirokisiz ijodkorlik ishining o'zi bo'lmaydi;

- ko'pgina boshqa faoliyat turlaridan farqli o'laroq, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik yotadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z psixik holatidan boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni qo'zg'atishni talab etadi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jo'shqin bo'lib subyektniga, sherik ijodkorga aylantiradi, uning faol ishtirokisiz ijodkorlik ishining o'zi bo'lmaydi;

- ko'pgina boshqa faoliyat turlaridan farqli o'laroq, aktyorlik va pedagogik ijodkorlik asosida buning uchun ajratilgan muayyan vaqt davomidagi ijodkorlik yotadi, u ijodkordan (o'qituvchi, tarbiyachidan) o'z psixik holatidan boshqarishda tezkorlikni va ijodiy kayfiyatni qo'zg'atishni talab etadi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik natijalari jo'shqin bo'lib, rivojlanib, o'zgarib boradi, hamisha jarayondan iborat bo'ladi;

- teatr va pedagogik ijodkorlik jamoa tusida bo'ladi.

Shunday qilib, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni rejalashtirish boshlangandayoq bir qadar pedagogik dramaturgiya amalga oshirilishi lozim, u pedagogik harakatning o'ziga dialektik, jiddiylik bag'ishlashga yordam beradi. Pedagog dars va har qanday tadbir sistemasida tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni rajalashtirar ekan, uni aniq odamlarga yo'naltiradi, umuman, jamoda, xususan har bir jamoaga nisbatan bo'lajak pedagogik harakat uchun zarur tarbiyaviy-syujetli vaziyat yaratadi.

Ma'lum ma'noda dars - o'ziga xos pedagogik pyesa bo'lib, unda o'qituvchi ssenariy muallifi sifatida, munosabatlar dramaturgiyasini barpo etadigan va uni boshqaradigan kishi sifatida maydonga chiqadi.

2. Pedagogik xayol pedagogik ta'sir ko'rsatishning tarkibiy qismi sifatida

Pedagogik xayolni taxminan quyidagicha tasavvur etish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatga hozirlik ko'rish bosqichidagi xayol.
2. Bevosita tadbir, dars oldidagi pedagogik xayol.
3. Pedagogning ijodiy kayfiyatini rag'batlantiradigan xayol.
4. U yoki bu harakat, hodisaning sababini bilib olishga yordamlashadigan xayol.
5. Istiqboliy pedagogik xayol.

Pedagogik xayolning asosiy yo'nalishlari:

1. Pedagogik vaziyatni tahlil qilishga yordam beradigan xayol.
2. Pedagogik vazifani samarali hal etishga qaratilgan xayol.
3. Pedagogik ta'sir natijalarini oldindan ko'ra olishni ta'minlovchi xayol.
4. Tarbiyalanuvchilarning his-tuyg'ulari va niyatlarini oldindan bilishga yordam beradigan xayol.

Xayolning ana shunday ilgari lamalik vazifasi o'quvchi shaxsini axloqiy, aqliy rivojlantirish istiqbolini ta'minlaydi.

Har bir o'quvchi va jamoa psixologiyasidagi o'zgarishlarni seza bilish uchun o'qituvchida **empatiya** rivojlangan bo'lishi lozim. Busiz tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasida bir-biriga ta'sir ko'rsatish samaradorligi hosil bo'lmaydi.

Hissiy o'xshatish tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning eng muhim ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismi bo'lib, unda ko'p tomonlama rol o'ynaydi.

U birinchi bosqichda - pedagogik niyat tug'ilishi bosqichida-pedagogning bolalar bilan bo'ladigan munosabati rejalashtiriladi.

Ikkinchi bosqichda -niyatni ishlab chiqish bosqichida - hissiy o'xshatish ancha faol harakat qiladi.

Uchinchi bosqichda - sinf bilan bevosita muomala jarayonida niyatning gavdalanishi va amalga oshishi bosqichida - hissiy o'xshatish pedagogning muomaladagi teskari aloqani saqlashning umumiy prinsipi sifatida namoyon bo'ladi, ta'sir ko'rsatishning muayyan natijalarini his qilish va ilgari rejalashtirilgan va tuzatish kiritadigan usullarni va joriy pedagogik vaziyatda yo'l topishga yordam beradigan vaziyatli nodir hodisa sifatida tanlash imkonini beradi.

Pedagogik ijodkorlikning **to'rtinchi bosqichida** hissiy o'xshatish amalga oshirilgan faoliyat va muomalaning mumkin bo'lgan natijalarini tasavvur etish va sezish, ularning yo'nalishini aniqroq va maqsadga muvofiqroq rejalashtirishga yordam beradi: Uning tuzilishi quyidagicha:

hissiy	pedagogik	hissiy	pedagogik
o'xshatish	ta'sir ko'rsatish	o'xshatish	ta'sir ko'rsatish

Pedagogik faoliyatning g'oyat murakkab jihatlarini amalga oshirish uchun pedagog diqqatni boshqara bilishi lozim.

Pedagogik diqqat pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatidabir qator olimlar (M.D.Levitov, F.N.Gonobolin, I.V.Straxov, N.V.Kuzmina)ning asarlarida ancha to'liqroq o'rganib chiqilgan.

Diqqatning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi alohida rolini ayniqsa **K.S.Stanislavskiy** aniqlab bergan. *“Diqqat sovuq, mulohazakor diqqat emas, balki*

hissiy, faol diqqat - barqaror diqqat holatini uyg'otishga yordam beradi". Diqqat ko'p tomonlama bo'lmog'i kerak. Ijodiy pedagogik diqqatning quyidagi xususiyatlari mavjud: **ko'p obyektivlik, jo'shqinlik, amaliylik, barqarorlik**; U aqliy, hissiy va irodaviy xususiyatlarga ham egadir.

Diqqatning jo'shqinligi 3 xil darajaga ega: 1) Diqqatni bir necha ob'ektga yo'naltirishni bilish; 2) Asosiy narsani ajratish, ikkinchi darajali narsalarni nazorat qila bilish; 3) Diqqatning yangi obyektlarini diqqat maydoniga kiritish, yangi obyektlarning paydo bo'lishini oldindan belgilab olish.

Diqqatning jo'shqinligi: **1) Barqaror diqqat. 2) diqqat faoliyatidagi to'sqinliklarni yengishga qodir bo'lib qolmasdan, balki ularni oldindan payqashga ham qodir. 3) Barqaror va amaliy diqqat.**

Katta yoshdagi kishida diqqatning hajmi 4 - 6 ob'ektga yetadi. Shuning uchun obyektlar soni ko'paygan sharoitda mashq qilmagan kishida nazorat yo'qolishi mumkin, sarosimaga tushish holati boshlanadi.

K.S.Stanislavskiy: "Aktyorning rol ustida ishlashi" kitobida diqqatning hajmi haqida gapirar ekan, diqqatning kichik, o'rta va katta doiralari ajratib ko'rsatadi hamda diqqat doirasini kichikdan kattaga qarab sekin-asta kengaytirib borishni tavsiya qiladi. Uning bu fikri pedagogik faoliyatga ham to'liq taalluqlidir.

3. Bo'lajak pedagogni aktyorlik psixotexnikasining amaliy usullariga o'rgatish

Harakat, diqqat, organika, mushaklar erkinligi, xayol, muomala, tagma'no, vazifadan tashqari vazifa, to'ppa-to'g'ri harakat - K.S.Stanislavskiy sistemasining asosiy tushunchalari bo'lib, ularni bo'lajak o'qituvchi o'zlashtirib olishi foydalidir.

K.S.Stanislavskiy o'gitlaridan biri ***"ishlab chiqarishga doir harakat har qanday majburiylikni tashabbusga aylantirishdir"***. O'qituvchining harakati diplomatik rejissyorlik temperamentiga yaqin bo'lmog'i kerak.

O'quvchilar bilan birinchi uchrashuv muhim psixologik marra hisoblanadi. Sinfga kirish pedagogik safarbarlikni va ayni vaqtda teatr "erkinligini", ko'tarinkilikni talab qiladi.

Sahnadagi asosiy hodisalardan biri kelish va ketishdir. Tashqi ko'rinish - o'qituvchi safarbarligining qo'shimcha guvohidir. Pedagogning sinfdagi turish holati o'zining alomatlariga ega. Masalan, chap qism eng oddiy muraccenasining tili **“Oddiy bo'lishlik”**ni bildiradi, bunda ko'z qarashi go'yo harakatning o'ng qismidagi bo'sh makonga “haydaydi”, chunki ko'z shartli-refliktorli fiziologik mexanizmlar tufayli fazoni chapdan o'ng tomonga qarab “o'qiydi”. O'ngdagi konpozisiya tugallikka intiladi, chunki chap qismidagi fazo o'ng tomonda joylashgan konpozisiyani qisib qo'yganday bo'ladi va bu bilan uni ahamiyatliroq, salobatliroq qiladi.

Pedagogning o'quvchilarga yuzi bilan qarab turishi (o'ng) yoki burilib tirishi ham o'ziga xos semantikaga ega. Auditoriyaga idrokning psixofiziologiya qonunlari bo'yicha to'g'ri chiziq bo'ylab chiqib kelish (punara turish) o'quvchilarni sergaklantiradi.

Sof yon tomonni tatbiq etish imkoniyati cheklangan, chunki u auditoriyani ko'zdan kechirish nuqtai nazaridan juda kam yaroqlidir, lekin muvozanat vazifalarini hal qilish uchun yaroqlidir.

Muskullarni ozod qilish pirovard natijada ortiqcha hayajonlanishga barham berishni maqsad qilib qo'yadi, ya'ni psixik zo'riqishni yengishga yordam beradi.

Qo'l mushaklarini bo'shatish uchun irodani zo'riqtirish mashqini o'tkazish lozim: irodani zo'riqtirish, barmoq muskullarini bo'shatish lozim.

Navbatdagi mashq - zo'riqishni va bo'shashishni alohida-alohida sezish mashqidir. M: O'ng qo'l va chap oyoq, chap qo'l va o'ng oyoqni zo'riqtirish mumkin.

4. Xotira, diqqat va xayolni mashq qildirish - aktyorlik psixotexnikasining uch asosiy qismi sifatida

Xotirani mashq qildirish qoidalari va usullar K.S.Stanislavskiy va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mixail Chexov “Akterning texnikasi to'g'risida” nomli kitobida quyidagi mashqlarni keltiradi: 1-mashq - oddiy buyumni tanlab oling. Uni ko'zdan kechirib chiqing. Buyumga “qarash”dan qochishda harakat qiling, o'zingiz uchun unung

tashqi ko'rinishini tasvirlang. Diqqat jarayonini tashkil etuvchi hamma to'rt harakatning ichida (psixologik) takrorlang: buyumni qo'lga olib, uni o'zingizga torting, unga intiling, u bilan birga qo'shilib ketishga harakat qilganday ichiga kiring. Bu harakatlarning har birini dastlab alohida-alohida, keyin birgalikda qiling, ikkitadan, uchtdan va hokazo birlashtiring. Mashqni davom ettiring, shuni kuzatib boringki, sizning sezish a'zolarangiz ham, gavda muskullaringiz ham ortiqcha zo'riqmasin. Diqqatingiz obyektni quyidagi tartibda almashtiring:

1-oddiy ko'rinadigan buyum, 2-tovush, 3-odam nutqi, 4-esga tushgan oddiy buyum, 5-esga tushgan tovush, 6-esga tushgan odam nutqi (so'z yoki bitta ibora), 7- siz yaxshi bilgan, esga tushgan kishi obrazi, 8- pyesa yoki adabiyotdan olingan obraz, 9- xayoliy mavjudot, manzara, me'moriy shakl va shu kabilarning siz o'zingiz yaratgan obrazi.... Mashqlarning uzoqligidan ko'ra, ularning muntazamligi (bir kunda ikki uch marta) muhimroqdir. Vaqti-vaqti bilan murojar qilib ko'ring.

Diqqat, xotira va xayol bir-biriga bog'liq hodisalar bo'lib, ularni K.S.Stanislavskiy ***“aktyorlik psixotexnikasining uch asosiy qismi”*** deb atagan edi.

Diqqatni mashq qildirishga doir mashqlar

1. Gugurt qutichasi biografiyasini esga tushiring.
2. 5 sekundlik qisqa e'tibor bilan stol ustida yotgan barcha buyumlarni ichki nazar bilan “suratga” oling.
3. Buyumlarni “suratga oling”. Ko'zni yumishga komanda beriladi. Pedagog buyumlarni aralashtirib yuboradi va sinaluvchidan buyumlar oldin qanday yotgan bo'lsa, ularni shunday qo'yib chiqishni so'raydi.
4. Stol ustidan tashlab yuborilgan gugurtlar qanday tushganligini “besh”gacha sanashda eslab qoling. Keyin eslab qolish vaqti “uch” hisobigacha qisqaradi.
5. Bulutlarga nazar tashlang (yoki atrofingizga har qanday buyumga qarang). Ular nimalarga o'xshaydi?
6. “O'ttiz”gacha sanab, xonada “S” harfi bilan boshlanuvchi barcha narsalarni toping va eslab qoling.

7. Stullar qanday turganligini eslab qoling va ko'zingizni yuming, bu "labirintdan" o'ting.

8. Auditoriyada janub va shimolga qarab mo'ljal olish, bunda tabiat manzaralarini xayolga keltirish, keyin ko'zni yumib va parrak bilan dunyo tomonlarini aniqlash.

9. Birinchi, ikkinchi va uchinchi tezlikda yurish va yugurish.

10. Portret bo'yicha biografiya.

11. Kishining qadam tashlashi va nazar tashlashiga qarab biografiyasini so'zlab bering.

12. Kochadagi kuzatishlar va so'ngra voqyealar to'g'risida hikoya qilish.

Kishilarning fe'l-atvorlari va holatlarini sevishganlarni, boshliq yoki buysunuvchi va hakoza larni ularning xulq-atvorlari bo'yicha kuzatish alohida qiziqish uyg'otadi.

5. Muomalani mashq qildirish usullari

Muomala - falsafa, sosiologiya, kibernetika, tilshunoslik, psixologiya va pedagogikada ilmiy tadqiqotlarning alohida fanlararo sohasi deb qaraladi. Pedagogik kategoriya bo'lgan muomala o'zaro bog'langan uch nuqtai nazardan qarab chiqiladi va ularga nuvofiq ravishda bo'lajak pedagoglarning muomalasini tarbiyalash mumkin:

1. Respublikamizning mustaqil taraqqiyoti, ijtimoiy madaniyatida ishtirok etish;

2. Erkin fikrlovchi, vatanparvar, insonparvar shaxsni shakllantirish;

3. Ijodiy individuallikni rivojlantirish.

Talabalarni muomalaga tayyorlash ularda quyidagi fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

1. Ijodiy tafakkurni;

2. Nutqni erkin egallashni;

3. Empatiyada qobiliyatni;

4. Muomala sohasidagi ijtimoiy yo'l-yo'riqlarni;

5. O'zaro fikr almashish malakalarini;

K.S.Stanislavskiy shaxslararo o'zaro muomalaning boshlang'ich bosqichiga katta ahamiyat berish kerak, deb hisoblagan edi. Bu bosqich "ob'yekt qalbini ko'z changali bilan sinab ko'rishga" asoslangan, bu begona qalbni subyekt va erkin idrok etish uchun tayyorlangan edi. Stanislavskiy har bir muomala harakatining 5 ta majburiy bosqichini belgilab berdi.

1-bosqich - tevarak-atrofdagi sharoitda mo'ljal olish va obyekt tanlash, muomala obyektiga qarab yo'l tutish;

2-bosqich - obyekt diqqatini o'ziga tortish;

3-bosqich - muomalaga "moslashish", sherikni to'lqinlantiradigan narsaga tayyorlash va moslashtirish;

4-bosqich - sherikning ichki nazar bilan ko'ra olish;

5-bosqich - sherikning teskari aloqaga doir javobini idrok etish, uning muomalaga tegishli xayollari, idroklardan olgan ta'sirlarini ma'lum qilish.

Muomalani mashq qildirish 6-12 o'quvchidan iborat mashq guruhlarida o'tkaziladi. Ba'zan guruh a'zolari sonini ko'paytirish mumkin.

Mashq guruhi ishining asosiy prinsiplari:

1) Ishonchli va oshkora muomala uchun sherikka ta'sir ko'rsatish va axborotning hissiy mazmunini ma'lum qilish, muomala qilayotgan subyektning o'zi ma'lum qilinayotgan narsani qanday ko'rishni bilish;

2) Muhokamalarda javobgarlik;

3) Samimiylikka rioya qilish;

4) Rahbarlikning, ijtimoiy-psixologik mashq o'tkazishning umumiy qoidasiga muvofiq amalga oshirilishi; Bunda "sheriklik" (T.S.Yasenko) prinsipini asosiy prinsip hisoblanadi.

Rahbarlik xarakteri demokratik bo'lib, rahbar ishtirok etmaydigan, o'z-o'zini boshqarish prinsipi bo'yicha ayrim mashg'ulotlar o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Hammasi bo'lib 30 tadan 50 tagacha "sessiya" o'tkaziladi. Har bir mashg'ulotdagi ish 1-1,5 soatdan oshmaydi.

Kirish quyidagi psixogimnastik mashqlar bilan boshlanadi:

1. Harakatlanish tarzidagi usullar - psixogimnastikasi;

2. Guruhliy qo'shiq aytish yoki raqsga tushish.
3. Musiqa tinglash (birgalikda).
4. "Psixorasm"- berilgan mavzyda loyihaviy rasm chizish.
5. Harakatlanishga doir o'yinlar;
6. So'zsiz muomala;
7. Og'zaki muomala;
8. Sosiogrammalar tuzish (guruhdagi o'zaro munosabatlar haqida).
9. O'yinlar:
 - Kim qanday?
 - Fahm-farosat.
 - Bojxona.
 - Oltinchi tuyg'u.
 - Sen kimsan?
 - Gavda tili.
 - Kalokat.
 - Plyuslar va minuslar.
 - Orqasi bilan.
 - Qattiq hayajonli harakatlarsiz.
 - His-tuyg'ularni so'zsiz ifodalash.
 - Harakatli sosiogramma. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:
 1. Qatnashchilardan birining ustun mavqyeda bo'lishi.
 2. Kim-kimga yordam bermog'i.
 3. Mayllar.
 4. Dilkashlik (diqqat kimga qaratilgan).
 5. Diqqatni talab qilish.
 6. Bog'liqlik.
 7. Bo'ysinuvchanlik.
 8. Musobaqa.
 9. Ishonchsizlik.
 10. Yoqtirmaslik.

11. Tajovuskorlik.

Xuddi shu nuqtai nazardan shaxslararo harakatlarni qabul qiluvchi kishiga nisbatan ham tahlil qilinadi, lekin teskari belgi bilan tahlil qilinadi. Masalan, ustun mavqeyi tahlil qilishda sizni himoyadagi o'z fikriga ishontirgan kishi, kim sizning yoningizni olgan bo'lsa, o'sha kishi hisobga olinadi va hokazo.

Respublikamiz mustaqilligi natijasida ta'lim-tarbiya tizimi faqatgina shaklan emas, balki mazmun-mohiyat jihatidan ham yangilandi.

O'tmish ta'lim-tarbiya tizimidagi avtoritar-buyruqbozlik, tarbiyalanuvchi shaxsini ezish, toptash, erkinlik va erkin fikrni buzishga asoslangan ta'im tizimi o'z o'rnini insonparvarlik va demokratiyaga bo'shatib berishga majbur bo'lmoqda. Xo'sh, buning sababi nimada?

Hozirgi zamon umumta'lim maktabida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borish zimmasida bo'lgan murabbiy, pedagog shuni bilishi kerakki, hozirgi maktab yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchiga muhtoj.

O'qituvchining bilish saviyasi, pedagogik mahorati, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish-turishi, hatti-harakati, butun vujudi bilan o'quvchisi qalbiga yo'l topa olish va uni ezgu ishlar sari yo'naltira olish lozim.

Maktabda ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda ayniqsa milliy-ma'naviy merosimizdan foydalanish katta imkoniyatga ega. Jumladan, muqaddas kitoblar: Qur'oni Karim, Avesto, Hadisi Shariflardan foydalanish bilan bir qatorda insoniylik, insonparvarlikning haqiqiy xazinasini bo'lgan M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf xos Hojibning *"Qutadg'u bilig"*, Ahmad Yugnakiyning *"Hibatul haqoyiq"*, Kaykovusning *"Qobusnoma"*, Ahmad Yassaviyning *"Hikmat"*lari, Sa'diy Sheroziyning *"Guliston va Bo'ston"*, A.Jomiyning *"Bahoriston"*, Alisher Navoiyning *"Xamsa"* va lirik asarlari katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. A.Navoiy insonparvarligi uning quyidagi misralarida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi:

Bu jahonda yo'q erur baqo guliga sabot,

Ajib saodat erur yaxshilig' birla qolsa ot.

Shunday ekan, umumta'lim maktabida, lisey yoki kolejlarda o'quvchilarga gumanitar-ijtimoiy fanlardan ta'lim berishda insonparvarlik tarbiyasiga katta e'tibor bermoq lozim. O'quv materiallarini tushuntirishda, tabiiy fanlarni o'tish paytida buyuk sharq mutafakkirlari she'rlari, tarjimai hollaridan foydalanish ham katta imkoniyatga egadir. Ayniqsa, hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, adabiyotini o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat va umuminsoniy qadriyatlarga alohida urg'u berish mumkin.

O'qituvchi o'quvchi qalbiga yo'l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, xushmuomalaligi bilan ham namuna bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi va o'quvchi orasida ota-bolalardek insoniy munosabat qaror topishi mumkin.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ta'lim-tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni keng jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoatchilik ta'sirini kiritish demakdir.

Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'qituvchilar o'rtasida hurmat tuyg'ularini shakllantirish, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish lozim.

O'qituvchi o'quvchi shaxsiga tarbiya obykti sifatida emas, balki xuddi o'zi kabi subyekt deb qarashi lozim.

Umuman, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni demokratiyashtirish va insonparvarlashtirish uning mohiyat va mazmunini erkin shaxsni tarbiyalash maqsadini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Sinov savollari

1. Pedagog va aktyor faoliyatida qanday o'xshashliklar mavjud?
2. K.S.Stanislavskiy sistemasining pedagogik mahorat uchun qanday ahamiyati bor?
3. Pedagogik xayol nima u nima uchun kerak?
4. O'qituvchi bilan aktyor faoliyati orasida qanday umumiylik bor?
5. Tarbiyaviy jarayonda hissiy o'xshatishning roli qanday?
6. Pedagogik diqqatning o'ziga xos xususiyati va uni qanday rivojlantirish kerak?
7. Tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish mavzui va me'yorini qanday hisobga olish kerak?
8. O'qituvchining o'z-o'zini boshqarishi.
9. Yangicha pedagogik tafakkur nima?
10. Psixologik xizmat nima?
11. Milliy ruh nima?
12. Ta'lim-tarbiya jarayonining demokratlashtirishning mohiyati nimadan iborat?
13. O'quv-tarbiyaviy ishlarni insonparvarlashtirishni qanday tushunasiz?
14. Pedagogik hamkorlikni qanday tushunasiz?
15. Milliy dunyoqarash nima?
16. Milliy tarbiya qanday bo'lishi lozim?

Metodik axborot ta'minoti

1. Asqarova O'. Pedagogikadan amaliy mashqlar va masalalar. Toshkent: «O'qituvchi» 1994.
2. Axmedova M.E Niyozov G. "Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari" o'quv qo'llanma T:2011, Noshir nashriyoti 157 b.
3. Abdumannotov A. Alisher Navoiy merosi asosida talaba-yoshlar ma'naviyatini shakllantirish. Samarqand: 2009, 32 b.

4.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Direktorning ish kitobi / Amaliy tavsiyalar. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007.

5.Karnegi Deyl. «Do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish to'g'risida», «O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati», «Bezovtalikdan xalos bo'lish va yangi hayot boshlash sirlari». T.: «Yangi asr avlodi»nashriyoti, 2013. -720 b.

6.Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari.T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013, 116 b.

7..Shodiyev N. Pedagogika fanidan muammoli vaziyatlar va o'quv topshiriqlar.- Samarqand: 2004, 116 b.

8.Shayakubov Sh, Ayupov R. Interfaol ta'lim usullari.T: «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti, 2012, 136 b.

9.Usanov Sh.Umumiy pedagogika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari(O'quv-uslubiy tavsiyanoma).- Samarqand:2012, 30 b.

10.Hasanbayev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.– 672 b.

11.Qosimova O. Talaba-qizlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish. T.: «Fan va texnologiya» 2013, 56 b.